




“O‘ZBEK FOLKLORI VA SHEVALARI TADQIQOTLARI: AMALIYOT, METODOLOGIYA, YANGICHA YONDASHUV”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy
konferensiya materiallari

2026-yil 23-may

*(Professor Samixon Ashirboyev tavalludining
80 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan)*



“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari
/ Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – Toshkent, 2026. bet.

Mas’ul muharrir:
Shuhrat Sirojiddinov
filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

Normurodova N.Z. filologiya fanlari doktori, professor;
Jabborov N.A. filologiya fanlari doktori, professor;
Ashirboyev S. filologiya fanlari doktori, professor;
Tilavov A.X. filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
Xidraliyeva Z.R. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Aliqulova H.Q. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;
Turdialiyev A.X. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Alimardanov E.I. filol.fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), kattao‘qituvchi;
Qodirov U.A., katta o‘qituvchi.

Ushbu to‘plamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2026-yil 23-mayda o‘tkazilgan **“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari hamda filologiya fanlari doktori, professor Samixon Ashirboyevning tabarruk yoshi munosabati bilan yo‘llangan tabriklar o‘rin olgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin. Maqolalar sifati, mazmuni va haqiqiyliги uchun muallifning o‘zi javobgar hisoblanadi.



60	Saida NORMAMATOVA, Surxondaryo qipchoq shevalarida chorvachilik oid leksika	703
61	Feruza QOSIMOVA, O'zbek dialektologiyasida qo'llanilgan transkripsion belgilar tizimi	707
62	Dilnoza RAIMBERDIYEVA, "Oychinor" dostonining fonetik dialektizmlari tahlili	711
63	Shohida MAMARAJABOVA, Uzun tumani areali bo'ylab qo'ng'iroq shevalarining tarqalishi	713
64	Shahzoda MURODOVA, "Go'ro'g'li" dostonlarida boshlanma	717
65	Mohidil RAJAMATOVA, Parkent tumani folklori namunalari tahlili	723
66	Holida HUSANOVA, "Zarbulmasal"dagi maqollar tahlili	726
67	Gulsevar TURSUNOVA, Anvar Obidjonning bolalar adabiyotiga qo'shgan hissasi	730
68	Malika AMINJONOVA, Namangan o'zbek shevalarining o'zbek adabiy tiliga munosabati	735
69	Behruz BOBOYOROV, O'zbek tilida blingvizm hodisasi va uning o'rganilish talqinlari	739
70	Nazokat QODIROVA, Sayfi Saroyining "Guliston bit-turkiy" asari leksikasining tematik guruhlar	745
71	Shodiya QOSIMOVA, Muyassar XOLOVA, O'zbek milliy korpusiga yozma matnlarni kiritishning metodologiyasi: tematik va metama'lumotli (Mingbuloq tumani misolida)	748
72	Muborak XAYDAROVA, Muyassar XOLOVA, Dialekt va nutq madaniyati	751
73	Muxlisa KUCHIMOVA, Mifologiyada hayvon obrazlarining badiiy ifodasi	748
74	Marjona TOG'AY, "Qoraqayun" romanida qo'llangan leksik dialektizmlar tahlili	752

O'ZBEK DIALEKTOLOGIYASIDA QO'LLANILGAN TRANSKRIPSION BELGILAR TIZIMI

SYSTEM OF TRANSCRIPTION SIGNS USED IN UZBEK DIALECTOLOGY

Feruza QOSIMOVA,

Tosh DO'TAU talabasi

10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/YRIU7365

Annotation. *This article analyzes the system of transcription signs used in Uzbek dialectology. It examines the emergence of transcription in the process of studying Uzbek dialects, the role of Latin- and Cyrillic-based transcription traditions, and the scientific contribution of J. Budenz, H. Vámbéry, Y. D. Polivanov, G'ozzi Olim Yunusov, V. V. Reshetov, F. Abdullayev, M. Saparov and S. Ashirboyev. The article shows that transcription is not a mechanical replacement of one writing system with another, but a special scientific method for recording dialectal pronunciation, phonetic variants and sound changes. The comparative analysis of different systems demonstrates the need to harmonize the national transcription tradition with modern Latin-based and international Turkological transcription practices.*

Key words: *Uzbek dialectology, transcription, transcription signs, dialectal text, Latin graphics, Cyrillic graphics, phonetic transcription, national transcription, international Turkological transcription.*

Tilning tarixiy taraqqiyotini, xalq nutqining hududiy ko'rinishlarini va shevalarda saqlangan qadimiy fonetik belgilarni o'rganishda transkripsiya alohida ilmiy ahamiyatga ega. Sheva materiali oddiy adabiy imlo asosida yozib olinsa, undagi tovushlarning real talaffuzi, cho'ziqlik, lablanish, old va orqa qator unlilar farqi, undoshlarning qattiq-yumshoqligi, singarmonizm, tovush almashuvi kabi muhim xususiyatlar to'liq aks etmaydi. Shu sababli dialektologik tadqiqotda transkripsion belgilar tizimi shevani o'rganishning asosiy metodik vositalaridan biri sifatida qaraladi.

O'zbek shevalarini o'rganish qadimiy ildizlarga ega. Turkiy tillar va shevalarni ilmiy kuzatish an'anasi XI asrda Mahmud Koshg'ariy faoliyati bilan bog'lanadi. Keyingi davrlarda o'zbek shevalarining ilmiy tadqiqi XIX asr oxiri va XX asr boshlaridan boshlab izchil tus ola boshladi. S. Ashirboyev o'zbek shevalarining o'rganilish tarixini besh davrga ajratadi; dastlabki ikki davr o'rta asrlar bilan, keyingi uch davr esa XIX asr oxiri va XX asrdan keyingi ilmiy izlanishlar bilan bog'lanadi [Ashirboyev 2021; 10; Ashirboyev 2023; 123].

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida V. Nalivkin, M. Nalivkina, A. Starchevskiy, A. Vishnegorskiy, N. Ostroumov hamda T. Qiyosbekov jonli xalq tili materiallarini yig'ib, lug'atlar tuzgan va o'zbek tilining ayrim fonetik-grammatik belgilarini qayd etganlar. Bu ishlar hozirgi ma'nodagi to'liq dialektologik tadqiqot bo'lmasa-da, keyingi shevashunoslik uchun muhim material vazifasini bajargan. Aynan shu bosqichdan boshlab sheva tovushlarini oddiy yozuv bilan emas, maxsus belgilar orqali qayd etish zarurati aniq ko'rina boshlaydi.

Transkripsiya shevadagi tovushlarni ularning haqiqiy talaffuziga yaqin holda ifodalash uchun xizmat qiladi. Har bir tadqiqotchi o'rganilayotgan shevaning fonetik xususiyatidan kelib chiqib, muayyan belgilar tizimidan foydalangan. Shuning uchun o'zbek dialektologiyasi tarixida yagona transkripsiya birdan shakllanmagan; aksincha, lotin, arab va kirill grafikasi asosida turli belgilar



tizimi bosqichma-bosqich yuzaga kelgan. Bu holat o‘zbek dialektologiyasi taraqqiyotining yozuv tarixi bilan ham bevosita bog‘liq ekanini ko‘rsatadi.

O‘zbek dialektologiyasining dastlabki taraqqiyot bosqichida sheva materiallarini to‘plash va ilmiy jihatdan qayd etishda lotin grafikasi asosidagi transkripsiya muhim o‘rin tutgan. 1930–1940-yillarda lotin yozuvining davlat alifbosi sifatida amal qilishi dialektologik tadqiqotlarda ham lotin grafikasi asosidagi belgilar tizimining keng qo‘llanishiga sabab bo‘lgan. Bu tizimlarda oddiy lotin harflari bilan bir qatorda maxsus diakritik belgilar ham ishlatilgan. Natijada shevalardagi nozik fonetik tafovutlarni nisbatan aniq qayd etish imkoniyati paydo bo‘lgan.

Lotin grafikasi asosidagi dastlabki manbalardan biri Jozef Budenzning Xiva shevasiga bag‘ishlangan “Khivai tatárság” maqolasidir. Asar 1865-yilda Vengriya Fanlar akademiyasining “Nyelvtudományi Közlemények” jurnalida e‘lon qilingan [Budenz 1865; 269–331]. Unda Mulla Is‘hoqdan yozib olingan Xiva shevasi matnlari, maqol va ertaklar hamda shevaning fonetik-grammatik tavsifi berilgan. J. Budenz “tatarcha” termini orqali Xiva turkchasi, kengroq ma’noda esa turkiy tilni nazarda tutgan. Tadqiqotchi unli tovushlarni ifodalash uchun 9 ta, undoshlar uchun esa 23 ta belgidan foydalangan; diftong, cho‘ziqlik va boshqa fonetik hodisalarni ko‘rsatishda diakritik belgilarni ham qo‘llagan [Alimardanov 2023; 95].

XIX asrning ikkinchi yarmida turkiy tillar va o‘zbek shevalarini ilmiy o‘rganishga hissa qo‘shgan olimlardan yana biri Herman Vamberi hisoblanadi. U 1863-yilda “Rashid afandi” nomi bilan Eron, Xiva, Buxoro va Samarqand hududlariga sayohat qilgan hamda jonli xalq nutqi, maqol-matallar, dostonlar va chig‘atoy tiliga oid qo‘lyozmalarni to‘plagan. Vamberi arab yozuvidagi matnlarni lotin alifbosiga ko‘chirgan, cho‘ziq unilarni diakritik belgilar bilan ifodalagan va turkiy tovushlarning talaffuzini imkon qadar aniq aks ettirishga intilgan. Uning tizimida unli uchun 7 ta, undoshlar uchun 22 ta belgi hamda ayrim qo‘shimcha diakritik vositalar qo‘llangan [Vámbéry 1867].

XX asr boshlarida o‘zbek shevalarini ilmiy asosda o‘rganish yangi bosqichga ko‘tarildi. Bu jarayonda Y. D. Polivanov, G‘ozi Olim Yunusov, A. K. Borovkov, V. V. Reshetov, F. Abdullayev va M. Saparov kabi olimlarning faoliyati alohida ahamiyat kasb etdi. Y. D. Polivanov o‘zbek dialektologiyasining asoschilaridan biri sifatida Toshkent, Farg‘ona va boshqa hudud shevalarini fonetik jihatdan tahlil qilgan. U qarluq-chigil-uyg‘ur, qipchoq va o‘g‘uz lahjalarining tovush tizimini qiyosiy o‘rgangan hamda lotin grafikasi asosidagi transkripsiyadan foydalangan. Polivanov unli tovushlar uchun 9 ta, undoshlar uchun 24 ta belgi qo‘llagan; shevalardagi fonetik hodisalarni ko‘rsatishda diakritik belgilarni ham ishlatgan.

G‘ozi Olim Yunusov ham o‘zbek dialektologiyasi fanining shakllanishida muhim o‘rin tutadi. Uning 1927-yildagi “O‘zbek tilining tovushlari” maqolasi arab yozuvida, 1935-yildagi “O‘zbek lahjalarini tasnifda bir tajriba” asari esa o‘sha davr yozuv amaliyoti asosida yaratilgan. Mazkur asarda olim Andijon shevasining unilari uchun ə, a, ɑ, ɒ, e, i, i:, ɛ, y, y:, u, u:, ø, o kabi belgilarni qo‘llagan. U 11 ta oddiy unli bilan birga i:, y:, u:, ɛ: kabi cho‘ziq unli variantlarni ham ajratgan. Undoshlar tizimida esa t, d, s, z, n, p, b, v, w, m, h, l, r, j, x, g, k, q, ɟ, ʃ, c, ɟ, ɟ kabi 23 ta transkripsion belgi ishlatilgan [Qazi Alim Junus 1935].

1940-yildan keyin o‘zbek yozuvi kirill grafikasiga o‘tgach, dialektologik tadqiqotlarda ham kirill asosidagi transkripsiya keng qo‘llana boshladi. Sovet davri o‘zbek dialektologiyasi, asosan, kirill grafikasi asosida shakllandi. Bu davrda V. V. Reshetov tomonidan ishlab chiqilgan transkripsiya tizimi eng muhim nazariy va amaliy tayanchlardan biriga aylandi. Keyinchalik Sh. Shoabdurahmonov, F. Abdullayev, O. Madrahimov, S. Rahimov, A. Ishayev, M. Mirzayev, M. Nosirov, X. Alimurodov kabi tadqiqotchilar ham kirill yozuvi asosidagi dialektologik belgilar orqali sheva materiallarini qayd etganlar.

V. V. Reshetov o‘zbek shevalarini yozib olishda kirill grafikasi asosidagi ilmiy-fonetik transkripsiyadan foydalangan va uning nazariy tamoyillarini 1947-yildagi “К воспроизведения транскрипции” maqolasida izohlagan [Reshetov 1947]. Tizimning asosiy maqsadi har bir muhim fonema va fonetik variantni alohida belgi bilan ifodalashdan iborat edi. Reshetov tizimida unlilar uchun jami 15 ta belgi qo‘llangan: а, е, э, и, ы, ъ, ь, у, о, љ, џ, џ, џ, џ. Undoshlar tizimida esa alifbodagi belgilar bilan bir qatorda Ғ, Қ, Ң, ЮШШОQ undoshlarni ko‘rsatadigan belgilar, qorishiq tovushlar va boshqa maxsus ifodalar ishlatilgan [Reshetov, Shoabdurahmonov 1978].

Reshetov tizimining afzalligi shundaki, unda o‘zbek shevalaridagi old va orqa qator unlilar, indifferent unlilar, lablangan va lablanmagan tovushlar, qattiq hamda yumshoq undoshlar alohida farqlangan. Masalan, э old qator lablanmagan keng unli, џ orqa qator ochiq unli, ы orqa qator tor unli, љ old qator lablangan tor unli, џ esa old qator lablangan o‘rta keng unli sifatida izohlangan. Bu belgilar sheva talaffuzini oddiy imlodan ko‘ra aniqroq qayd etishga xizmat qilgan.

Kirill asosidagi transkripsiya o‘z davrida katta ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etdi. U sheva tovushlarini aniq ifodalash, dialekt materiallarini saqlab qolish, fonetik hodisalarni qiyosiy tahlil qilish imkonini berdi. Shu bilan birga, mazkur tizimning ayrim kamchiliklari ham mavjud edi. Belgilar sonining ko‘pligi, ayrim belgilarni yozish va o‘qishdagi murakkablik, kompyuter tizimlarida ularni kiritishdagi noqulayliklar keyingi davrda lotin grafikasi asosidagi yangilangan transkripsiyaga ehtiyojni kuchaytirdi.

Fattoh Abdullayevning ilmiy faoliyati, ayniqsa, Xorazm shevalarini kompleks o‘rganishi bilan bog‘liq. Olim Xorazm shevalarining fonetik, leksik va grammatik xususiyatlarini tadqiq etib, ularning o‘zbek shevalari tizimidagi o‘rnini ko‘rsatgan. F. Abdullayev kirill grafikasi asosidagi dialektologik transkripsiyadan foydalangan. U Shimoliy va Janubiy Xorazm shevalaridagi unli tovushlarni ifodalash uchun 10 ta, undosh tovushlar uchun esa 22 ta transkripsion belgi qo‘llagan; diftong, cho‘ziq unli va boshqa fonetik hodisalarni ko‘rsatishda diakritik belgilarni ham ishlatgan [Abdullayev 1961; Abdullayev 1967].

Masharif Saparov ham o‘zbek dialektologiyasida kirill grafikasi asosidagi transkripsiyadan foydalangan tadqiqotchilardan biridir. Uning “Xorazm vohasidagi turkiy tillarning o‘zaro munosabatlari” asarida unli tovushlar uchun 9 ta, undosh tovushlar uchun 22 ta transkripsion belgi qo‘llangan. M. Saparov ishlatgan э, џ, љ, ы, қ, ғ, ң kabi belgilar V. V. Reshetov, F. Abdullayev, Sh. Shoabdurahmonov va boshqa dialektologlar qo‘llagan milliy transkripsiya an‘anasi bilan uyg‘unlik hosil qiladi [Saparov 1988].

Kirill va lotin asosidagi transkripsiyalar o‘rtasidagi asosiy farq ularning grafik asosida namoyon bo‘ladi. Kirill tizimi rus grafikasiga va sovet davri turkologik an‘analariga tayangan bo‘lsa, lotin tizimi hozirgi o‘zbek lotin yozuvi hamda xalqaro turkologik belgilar bilan uyg‘unlashadi. Masalan, kirill transkripsiyasidagi э yoki ä lotin asosidagi tizimda ä, џ yoki ā belgisi a/ā, ы belgisi ī, љ belgisi ū, џ belgisi ö, ғ belgisi γ, ң belgisi š, ч belgisi č, ж yoki дж belgisi ž, ң belgisi esa ŋ shaklida berilishi mumkin. Bu muvofiqliklar turli davrda yozilgan dialektologik materiallarni qiyoslashda muhim ahamiyatga ega.

Mustaqillikdan keyingi davrda o‘zbek yozuvining lotin alifbosiga o‘tishi dialektologik transkripsiya masalasini ham qayta ko‘rib chiqishni talab qildi. Chunki eski dialektologik merosning katta qismi kirill transkripsiyasida qolgan, yangi ilmiy tadqiqotlar esa lotin yozuvi asosida olib borila boshlagan. Shu sababli dastlab o‘tish davri uchun lotin va kirill belgilaridan birgalikda foydalanish tavsiya qilindi. S. Ashirboyev 2016-yildagi “O‘zbek dialektologiyasi” darsligida bunday yondashuvni qo‘llagan [Ashirboyev 2016].

Keyingi bosqichda S. Ashirboyev to‘liq lotin yozuviga asoslangan milliy transkripsiya tizimini yaratish zarurligini ilgari surdi. Uning qarashlariga ko‘ra, yangi tizim uch asosga tayanishi lozim: amaldagi o‘zbek lotin yozuvi, xalqaro fonetik alifbo unsurlari va turkologiyada

qo'llanadigan lotin asosidagi transkripsiya. Bunday yondashuv o'zbek dialektologik tadqiqotlarini xalqaro ilmiy muhit uchun tushunarli qilish, yosh tadqiqotchilarning elektron manbalardan foydalanishini yengillashtirish va tarixiy grammatika bilan dialektologiya uchun yaqin belgilar tizimini yaratishga xizmat qiladi.

O'zbek dialektologiyasida qo'llanilgan transkripsion belgilar tizimining tarixiy taraqqiyoti shuni ko'rsatadiki, har bir davrda transkripsiya amaldagi yozuv, ilmiy ehtiyoj va o'rganilayotgan shevaning fonetik xususiyatlariga mos ravishda shakllangan. Lotin asosidagi dastlabki tizimlar o'zbek shevalarini yevropalik turkologlar nazari bilan qayd etishga xizmat qilgan bo'lsa, kirill asosidagi tizim sovet davri o'zbek dialektologiyasining asosiy ilmiy yozuvi sifatida mustahkamlangan. Mustaqillik davrida esa lotin grafikasi va xalqaro turkologik belgilar bilan uyg'unlashgan yangi milliy transkripsiya zarurati yuzaga chiqdi.

Xulosa qilib aytganda, transkripsion belgilar tizimi o'zbek dialektologiyasida faqat texnik yozuv vositasi emas, balki sheva nutqini ilmiy tahlil qilish, turli hududlar talaffuzini qiyoslash, tarixiy fonetik jarayonlarni aniqlash va dialektal matnlarni asl holiga yaqin saqlash imkonini beradigan muhim metodik asosdir. O'zbek dialektologiyasida J. Budenz, H. Vamberi, Y. D. Polivanov, G'ozil Olim Yunusov, V. V. Reshetov, F. Abdullayev, M. Saparov va S. Ashirboyev tomonidan qo'llangan transkripsiya tizimlarini qiyosiy o'rganish bugungi kunda yagona, qulay va xalqaro ilmiy talablar bilan uyg'un milliy transkripsiyani takomillashtirish uchun zarur ilmiy zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдуллаев Ф. Хоразм шевалари. – Тошкент: Фан, 1961. – 347 б.
2. Абдуллаев Ф. Фонетика хорезмских говоров. – Ташкент: Фан, 1967. – 248 с.
3. Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Navro'z, 2016. – 136 b.
4. Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Nodirabegim, 2021. – 176 b.
5. Ashirboyev S. Areal lingvistika. – Toshkent: Bookmany print, 2023. – 148 b.
6. Budenz József. Khivai tatárság // Nyelvtudományi közlemények. Negyedik kötet. – Pesten, 1865. – P. 269–331.
7. Alimardanov E. Xorazm shevalariga oid bir tarixiy manba // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2023. – № 4. – B. 94–99.
8. Qazi Alim Junus. Ozbek lahčalarini tasnifda bir tačriba. – Taškent, 1935. – 68 b.
9. Поливанов Э. Д. Узбекская диалектология и узбекский литературный язык // К современной стадии узбекского литературного строительства. – Тошкент, 1933. – С. 28–45.
10. Решетов В. В. К вопросу о транскрипции // Учене записки ТГПИ им. Низами. – Ташкент, 1947.
11. Решетов В. В., Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек диалектологияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – 233 б.
12. Сапаров М. Хоразм воҳасидаги туркий тилларнинг ўзаро муносабатлари. – Тошкент: Фан, 1988. – 119 б.
13. Vámbéry H. Cagataische Sprachstudien. – Leipzig: F. A. Brockhaus, 1867. – 370 p.